



AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

Inoyatulloeva Shabnam Ahmad qizi

Denov tadbirkorlik vapedagogika institut talabasi

E-mail: shabnaminoyatulloeva0701@gmail.com

telefon raqam : +998 50 108 01 92

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19344623>

ARTICLE INFO

Received: 21st March 2026

Accepted: 25th March 2026

Published: 30th March 2026

KEYWORDS

Amir Temur, manbashunoslik, Temuriylar davri, Zarafarnoma, tarixiy manbalar, tarixshunoslik.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temur shaxsining O'zbekiston va Jahon tarixshunosligida tutgan o'rni va ro'li haqida so'z boradi. Uning davlat hukumdori va ilm-fan homiysi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgani, shuningdek barcha davrlarda Temur shaxsining tarix fanida qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr-mulohazalar yuritiladi. Ushbu maqolada Amir Temur davriga oid asosiy tarixiy manbalarni tahlil qilish, ularning turlari, mualliflari, yozilish tarixi va ilmiy ahamiyatini yoritishdan iborat.

KIRISH

Amir Temur nafaqat o'zbek davlatchiligi, balki butun Yevroosiyo tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk sarkarda va davlat arbobidir. Uning hayoti va faoliyatini o'rganishda tarixiy manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar tarixini chuqur o'rganish izga tushdi, bu davrda yozma manbalarning bir qismi ilmiy muomalaga kiritildi va salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi. Amir Temur davlatining tarixiy shakllanish bosqichlari, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini ilmiy asosda yoritishda manbalarning o'rni beqiyosdir. Amir Temur davriga oid manbalar turli tillarda – fors, arab, turkiy, ispan, fransuz va boshqa tillarda yaratilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos yondashuvni aks ettiradi. Ba'zi manbalar mualliflari Amir Temur saltanatida bevosita bo'lgan bo'lsa, boshqalari uzoqdan kuzatgan yoki boshqa manbalarga tayangan holda asar yozgan. Shu bois, ushbu manbalarni tizimlashtirish, ularning ishonchlilik darajasini aniqlash va qiyosiy tahlil qilish manbashunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, G'arb va Sharq manbalaridagi ma'lumotlarni solishtirish, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Amir Temur va temuriylar davri manbashunosligi bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Akademik B.Ahmedovning "Amir Temur va temuriylar davri tarixi" asarida manbalarning umumiy tahlili berilgan [6]. O.Bo'riyev o'z tadqiqotlarida Amir Temur va Temuriylar davri manbalari tarixshunosligini chuqur o'rgangan [8]. X.T.Fayziyev esa Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati haqida ilmiy xulosalar bergan [9]. Turkiya tarixshunosligida Ahmad Zaki Validiy Tog'an, Ismoil Aka kabi olimlarning asarlari alohida ahamiyatga ega. A.Z.V.Tog'aning "Temur va temuriylar davri" asari, Ismoil Akaning "Temur va uning davlati"

hamda “Temuriylar” kitoblari Turkiyada asosiy ilmiy manbalar hisoblanadi [10,11]. Tadqiqotda tarixiy-manbashunoslik, qiyosiy tahlil va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlab, Amir Temur davriga oid asosiy tarixiy manbalar aniqlandi va to'plandi. Keyingi bosqichda manbalar kelib chiqish tillari – g'arb, arab, fors, turkiy bo'yicha guruhlarga ajratildi. Har bir manbaning yozilish tarixi, muallifi, maqsadi va o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. So'ngra manbalar qiyosiy tahlil qilindi: ularning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari, ishonchlilik darajasi, tarixiy voqealarni yoritishdagi o'rni baholandi. Tahlil natijalari jadval shaklida umumlashtirildi.

ASOSIY QISM:

G'arb manbalari: Rui Gonsales de Klavixo kundaligi . Amir Temur davriga oid, e'tiborga molik tarixiy asarlardan biri ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning sayohat kundaligidir. Unda Klavixo 1403-1406-yillardagi sayohati davomida ko'rganlari, xususan, Amir Temur saltanati to'g'risida ma'lumot beradi. Bu asar G'arb nuqtai nazaridan yozilgan va bevosita kuzatishlarga asoslangan eng ishonchli manbalardan biridir [3, 47-b] . Klavixoning ma'lumotlariga ko'ra, Samarqand shahri hunarmandchilik markazi bo'lib, u yerda Sharqning turli hududlaridan kelgan hunarmandlar yashagan. Shahar aholisi orasida “turli xalqlar – turklar, arablar, mavrlar, arman va yunon katoliklari, nestorianlar va yakobitlar, suvga cho'milish marosimini yuzidagi olov bilan o'tkazadiganlar, ya'ni o'ziga xos tushunchaga ega nasroniylar” bo'lgan. Bu ma'lumotlar Samarqandning XV asr boshlarida ko'p millatli va ko'p konfessiyali shahar bo'lganligini ko'rsatadi. Klavixo Amir Temur harbiy yurushlarda bo'lmagan paytlarda bo'sh vaqtini ko'pincha shahar atrofidagi bog'larda o'tkazishini ta'kidlaydi. Bu ma'lumot Temurning nafaqat sarkarda, balki madaniyat va san'atga qiziqqan shaxs bo'lganligidan dalolat beradi. Ispan elchisi Temurning otasi haqida yozar ekan, turkiy qavmlarga xos muhim o'zlikni qayd etadi: “Uning otasi ham shaharga yaqin qishloqda yashagan, bu qabilaning aslzodalari shahardan ko'ra qishloqda yashashni afzal ko'rgan” [3, 51-b]. Klavixo Temur haqida yozar ekan, uni garchi Keshda tug'ilgan bo'lsa-da, aslida bu yerlik bo'lmagani, balki chig'atoy deb ataluvchi qabilalardan biriga taalluqli ekani haqida ma'lumot beradi [3, 52-b]. Bu ma'lumot Temurning kelib chiqishi haqidagi manbalarda muhim o'rin tutadi.

Temur davri tarixiga oid yana bir muhim manba Ibn Arabshoh qalamiga mansub. Ibn Arabshoh asli damashqlik bo'lib, Temur uni oilasi bilan Samarqandga majburan keltirgan. U 1389-yilda tug'ilgan. Ibn Arabshoh Samarqandga kelgan paytida 12 yoshda bo'lgan va ushbu asarini keyinchalik, 1436-1437-yillarda yozgan [4, 25-b] . Bu asar muallifning shaxsiy taassurotlari va kuzatishlariga asoslanganligi bilan qimmatlidir. Ibn Arabshohning Temurga nisbatan tanqidiy yondashuvi uning asarida sezilib turadi. Muallif ushbu urushlarni Chingizxon tavrotiga – yasoq e'tiqod qiluvchi Temurning chin musulmonlar ustiga yurishi sifatida qoralashga harakat qiladi. Bu holat manbaning ishonchligiga ta'sir qilgan bo'lsa-da, uning tarixiy voqealarni turli nuqtai nazardan ko'rish imkonini beradi. Ibn Arabshohning yozishicha, Temur Shom va Iroq kabi yurtlarga borganda: “Nima uchun sizlar Muoviya – r.a.ni o'zlaringga xalifa deb bilasiz? Axir u Ali – r.a. va uning avlodlarini o'ldirib, xalifalikka erishgan”, degan norozilik kayfiyatini bildirgan [4, 27-b] . Bu ma'lumot Temurning diniy qarashlari haqida muhim ma'lumot beradi. Ibn Arabshoh o'z asarida Movarounnahrda turkmo'g'ullarni chig'atoy deb, dashtliklarni esa totorlar deb ataydi [4, 28-b] . Bu etnonimlar Amir Temur davridagi etnik jarayonlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Misrlik olim Ibn Xajar al-Asqaloni – 1372-1449 150 dan ortiq asarlar muallifidir. Uning “Kitob inba al-g'umar bi abna il-umar” – zamon voqealari haqida ko'zi ojizlarga dastak asarida Amir Temur haqidagi ma'lumotlar ham yozib qoldirilgan. Asarning asosiy qismi 773-850 hijriy – 1372-1441 yillar voqealarini o'z ichiga oladi va 8 jilddan iborat – 3000 betdan ortiq [5, 113-b] .

Bu asar Misr manbashunosligining yirik namunasi hisoblanadi. Asarda Amir Temurning ota tomondan va ona tomondan nasabi va ularning ijtimoiy maqomi, Shamsiddin Foxuriy – Kulol, Said Baraka bilan munosabatlari va ularning g'alabalardagi ahamiyati, To'xtamishxon bilan bo'lgan janglar, Hindiston yurishi, Shom va Usmonli turklar bilan bo'lgan harbiy harakatlar

bayon etilgan [5, 114-b]. Bu ma'lumotlar Temur hayotining turli jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Amir Temur davrining asosiy fors tilidagi manbalari Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si va Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sidir [6, 7, 34-b, 56-b]. Bu ikki asar Temur tarixining asosiy manbalari hisoblanadi. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning bevosita buyrug'i bilan asar yozgan bo'lib, u rasmiy saroy tarixchisi sifatida ishonchli ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Asar 1404-yilda yozib tugatilgan bo'lib, Temurning hayoti va harbiy yurushlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si Temur hayotining eng ishonchli manbalaridan biri hisoblanadi [6, 36-b]. Sharafuddin Ali Yazdiy esa keyinroq, Shohrux davrida yozgan bo'lib, uslubiy jihatdan murakkabroq va badiiyoq asar yaratgan. U 1425-yilda yozib tugatilgan bu asarda Temurning to'liq tarjimai holi va harbiy yurushlari batafsil bayon etilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy o'z asarida Nizomiddin Shomiy asaridan keng foydalangan, shu bilan birga qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitgan [7, 58-b]. Turkiyada Amir Temur va temuriylar davri tarixi XIV-XV asrlar Anadolu va Markaziy Osiyo munosabatlari doirasida keng va tizimli ravishda o'rganilgan. XX asr turk tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha yirik olimlardan biri Ahmad Zaki Validiy Tog'an Temuriylar tarixi va manbashunosligi bo'yicha muhim ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Uning "Temur va temuriylar davri" asari bu sohada fundamental tadqiqotlardan biridir [8, 69-b].

NATIJALAR VA MUHOKAMA: Olingan tadqiqot natijalari Amir Temurning nafaqat davlat arbobi balki o'z davrining yetuk sarkardalaridan biri bo'lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari Amir Temur davri manbashunosligi murakkab va ko'p qirrali soha ekanligini ko'rsatadi. Turli tillardagi manbalar (fors, arab, turkiy, ispan) o'ziga xos qarash va yondashuvlarni aks ettiradi. Ushbu manbalarning ishonchliligi muallifning voqealarga bevosita guvoh bo'lganligi, yozilish vaqti va maqsadiga bog'liq. Masalan, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si (1404) Amir Temurning bevosita buyrug'i bilan yozilgan bo'lib, eng ishonchli manba hisoblanadi. Klavixon kundaligi (1403-1406) esa G'arb elchisining bevosita kuzatishlariga asoslangan va yuqori ishonchlilikka ega. Rui Gonsales de Klavixonning "Sayohat kundaligi" (1403-1406) ispan elchisi tomonidan yozilgan bo'lib, unda Temur saroyidagi hayot, Samarqandning obodonchiligi va xalqaro aloqalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Bu manba G'arb nuqtai nazarini ifodalaydi va voqealarning bevosita guvohi sifatida yuqori baholanadi.

Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarix-i Taymur" (1436-1437) asari muallifning Temur tomonidan asir olinib, Samarqandga keltirilishi va keyinchalik yozilgan tanqidiy xotiralaridir. Unda Temurning harbiy yurushlari va boshqaruv uslubiga nisbatan salbiy munosabat seziladi, bu esa manbaning ishonchliligiga ta'sir qilgan. Ibn Xajar al-Asqaloniyning "Kitob inba al-g'umar bi abna il-umar" asari esa XV asrda Misrda yozilgan ensiklopedik asar bo'lib, Temurning nasabi, To'xtamishxon bilan janglari va Hindiston yurishi haqida ma'lumot beradi. Ushbu manba Misr nuqtai nazarini aks ettirgani bilan ishonchli hisoblanadi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si (1404) Amir Temurning saroy tarixchisi tomonidan yozilgan bo'lib, unda Temurning harbiy yurushlari, davlat boshqaruvi va shaxsiy hayoti batafsil yoritilgan. Bu manba eng ishonchli hisoblanadi, chunki u Temur hayotligida va uning buyrug'i bilan yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si (1425) esa keyinroq yozilgan bo'lib, badiiy uslubi bilan ajralib turadi va Nizomiddin Shomiy asariga tayangan. XVI-XVII asrlarda yaratilgan "Temurnoma"lar forsiy va turkiy tillarda bitilgan bo'lib, ularda Temurning jasorati, sarkardalik mahorati haqida rivoyat va dostonlar jamlangan.

XULOSA. Amir Temur davri manbashunosligi murakkab va ko'p qirrali soha bo'lib, turli tillardagi manbalarni qamrab oladi. Har bir manba o'ziga xos qarash va yondashuvni aks ettiradi: Klavixon kundaligi G'arb elchisining bevosita kuzatishlari, Ibn Arabshoh asari tanqidiy nuqtai nazar, Ibn Xajar al-Asqaloniy asari Misr olimining qarashlari, "Zafarnoma"lar esa rasmiy saroy tarixidir. Bu manbalarning har biri Amir Temur hayoti va faoliyatining turli

qirralarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Manbalarni qiyosiy tahlil qilish Sohibqiron shaxsi va faoliyatining to'liq manzarasini yaratishga xizmat qiladi.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si eng ishonchli manba hisoblanadi, chunki u Temurning bevosita buyrug'i bilan va uning hayotligida yozilgan. Klavixo kundaligi ham yuqori ishonchlilikka ega, chunki u bevosita kuzatishlarga asoslangan. Ibn Arabshoh asari esa tanqidiy yondashuvi tufayli ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi, ammo u Temur haqidagi turli nuqtai nazarlarni ko'rish imkonini beradi. Temuriylar davriga oid manbalarni yanada chuqurroq o'rganish hamda yangi tarixiy tadqiqotlar olib borish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibn Arabshoh. (1437-1992). Ajoyib al-maqdur fi tarix-i Taymur. T.: "Sharq" nashriyoti. – 256 b.
2. Ibn Xajar al-Asqaloniy. (1441-2005). Kitob inba al-g'umar bi abna il-umar. Qohira. – 312 b.
3. Klavixo, Rui Gonsales de. (1403-1406-1990). Sayohat kundaligi. T.: Fan. – 211 b.
4. Nizomiddin Shomiy. (1404-1996). Zafarnoma. T.: O'zbekiston. – 248 b.
5. Sharafuddin Ali Yazdiy. (1425-1997). Zafarnoma. T.: "Sharq" nashriyoti. – 384 b.
6. Ahmedov, B. (2010). Amir Temur va temuriylar davri tarixi. T.: "Sharq" nashriyoti. – 256 b.
7. Amir Temur. Bibliografiya. Birinchi kitob. (2021). T.: Temuriylar tarixi davlat muzeyi. – 312 b.
8. Bo'riyev, O. (2021). "Amir Temur va Temuriylar davri manbalari tarixshunosligi". TDSHU davra suhbat materiallari. – 45 b.
9. Fayziyev, X.T. (2019). "Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o'rganish va targ'ib qilishning umumbashariy ahamiyati". O'zR FA konferensiyasi. – 56 b.
10. Aka, Ismoil. (2005). Temur va uning davlati. Anqara: Turk Tarix Jamiyati. – 312 b.
11. Tog'an, A.Z.V. (1970). Temur va temuriylar davri. Istanbul. – 456 b.
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000). "Amir Temur" va "Temuriylar" boblar. T.: – 890 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2026). "Sohibqiron Amir Temur buyuk sarkarda, davlat arbobi, ilm-fan va madaniyat homiysi" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya axborot xati. Buxoro: BuxDU. – 8 b.
14. Abdurahimov, M.(2000) "Temur va To'xtamish" T.: G'afur G'ulom namidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. – 80 b.